



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS BY TEACHING PAINTING ART IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

M.M. Ismoilova¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

KEYWORDS

education, training, human, artist, pedagogue, designer, architect, student, fine art, painting, higher education, society, spirituality, science, knowledge, creativity, tribe, desire 'dod, skill, creative ability, color, paint, shade, light, flash, shape, reflex, image, work

ABSTRACT

This article is aimed at solving such urgent problems as the role of painting in the social life of society, its significance and specificity. It is known that knowledge of the laws of painting is the basis for professional activities of future teachers of fine arts, artists and designers. The article provides important conclusions on the development of students' creative abilities by teaching the secrets of painting in higher educational institutions that focus on art education.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7366588

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RANGTASVIR SAN'ATINI O'RGATISH ORQALI TALABALARING IJODIY QOBILYATNI RIVOJLANTIRISH

KALIT SO'ZLAR:

ta'lim-tarbiya, dars mashg'uloti, inson, rassom, pedagog, dizayner, arxitektor, talaba, tasviriy san'at, rangtasvir, oliv ta'lum, jamiyat, ma'naviyat, ilm, bilim, ijod, qobilya, iste'dod, mahorat, ijodiy qobilyat, rang, bo'yoq, soya, yorug', blik, shakl, refleks, tasvir, asar

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tasviriy san'at turiga kiradigan rangtasvir san'atining ijtimoiy xayotdagi o'rni, uning ahamiyati va o'ziga hos xususiyatlarini ochib berish kabi dolzarb masalalar yoritib berilgan. Ma'lumki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari, rassomlar, dizaynerlar uchun rangtasvir fanining bilish- ularning kelajakdagi faoliyatining poydevori hisoblanadi. Badiiy ta'limga yo'naltirilgan oliv o'quv yurtlarida rangtasvir sirlarini o'rgatish orqali talabalarning ijodiy qobilyatini rivojlantirish haqida xulosalar berilgan.

Umrida bir karra ilhom chashmasidan bahramand bo'lib, dilidan chiqarib rasm chizolgan odam baxtli odamdir. Har birimiz ham, bolalik chog'larimizdan oq qo'limizga mo'yqalamu-bo'yoq olib, quyosh, gullar, qushlar, daraxtlaming rasmini solishga uringanmiz. Xuddi ana shu narsa kishining bevosita hayotdan olgan baxtiyor va faxrli tuyg'ularining yorqin ifodasidir. Kamolotga erishgan rassom esa o'zining to'plagan tajribasiga tayanib, tabiatdan ilhom olib, gul va yaproqlardan turli-tuman shakllar yasaydi, ularga jimjimador bo'yoqlar beradi, turli naqshlar va chiziqlar bilan bezaydi.

"Xech qachon unutmasligimiz kerak: ma'naviyat - bu, avvalo, insonlar urtasidagi uzaro ishonch, xurmat va e'tibor, xalk va davlat kelajagini birgalikda kurish yulidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir suz bilan aytganda, ma'naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor sancha mustaxkam bulsa, xalk xam, davlat xam shuncha kuchli buladi."² Yoshlarning ta'lum-tarbiyasida san'atning hususan tasviriy san'atning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. San'at insonning madaniyatini, ma'naviyatini, dunyoqarashini rivojlantiradi.

Mustaqillik yillarida san'atning barcha qatlamlarida o'z aksini topgan madaniy integratsiya milliy rangtasvir sohasining zamonaviy badiiy jarayonlar bilan uyg'unlikda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratdi. "Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga intilish tendensiyalari ko'zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim"³. Shu jihatdan, O'zbekiston rangtasvirida rivojlangan yangi tendensiyalar, ularning zamonaviy jarayonlar bilan aloqasi va milliy badiiy meros bilan uyg'unligini tadqiq etish muhimdir.

Rangtasvir xaqqoniyligi shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi.

²Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezhulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. -T.: Tasvir, 2021, -13 b.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. -T.: //Xalq so'zi. 2017. 17- avgust.

Rangtasvirni o'rganish — bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.⁴

Rangtasvir tasviriy san'at asari yaratishdagi asosiy vosita bo'lib, hayotiylikni aks ettirmoq, anglamoq va badiiy obraz sifatida amalga oshirishni nazarda tutadi. U emotsiyonallik va mantiqiylikning tabiiy birlashuvi hamda shaklning aniq ifodasi, plastik sifatlari va ashyolilik darajasining ichki mazmun bilan boyitilishi, soyalar teoriyasini qoidalari – yorug', yorug' soya, soya, refleks va yorug'da (blik) o'tayorug', rangtasvirda yorug'-soya va ton munosabatlari qonun qoidalari, shakl jixatidan murakkab ashyolar rangtasviri shakllanishi va rivojini o'rgatadi.

Rangtasvir-tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir. Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq, tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomashabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan, rangtasvirdagi eng asosiy ta'sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi. Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzlusiz bo'yoq qatlamenti hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rangtasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzlusizligiga ta'sir qilmaydi, chunki bo'yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi. Rangning tasviriy va ta'sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo`lgan erkinlik va to`liq kuch bilan foydalilanadi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko`rsatish, muhim detallarini bo`r ttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassilagini berish mumkin. Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko`riladi. Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o`zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega.

Rangtasvir –o'quv fani sifatida amaliy san'at yo'nalishi mutaxassislik fanlari orasida asosiy o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at o'qituvchisi butun faoliyati davomida qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalariga tayanib ish olib boradi. U o'zining kuzatishlari asosida biror tasvir yoki buyum yaratish uchun eskizlar bajarishda qalamtasvir va rangtasvirga murojaat qiladi. Kimki rangtasvirni o'rganmoqchi bo'lsa, u doimiy amaliy mashqlar bajarishi va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi zarur. Ushbu kitob akvarel bo'yog'i va mo'yqalamlar bilan rangtasviri bajarishdagi ilk qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Rangtasvir mashg'ulotlari orqali yosh rassom-pedagoglar atrof-muhit, borliqni kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi.⁵


⁴Abdirasilov S, Tolipov N, Oripova N. Rangtasvir (O'quv qo'llanma). -T.: O'zbekiston, 2006, -5 b.

⁵ Sultonov X.E. Rangtasvir (O'quv qo'llanma). -T.:2019, -4 b.

Rangtasvir texnikasining o'ziga xos tomonlari nimadan iborat? Rangtasvir texnikasining boshqa tasviriy san'at turlari, masalan, grafikadan farqi ko'rinish yoki alohida buyum qiyofasini rangda ifodalashdan iborat. Yorug'likning ma'lum ob'ektiv qonun-qoidalari asosida kolorit shakllanadi. Bu qonuniyatlar asosida ongimizda buyumlarning koloritdagi obrazlari paydo bo'ladi. o'zlashtirgandan keyingina talaba akvarel bo'yog'ining o'ziga xos xususiyatlariga tayanib obrazlar yarata oladi. Yorug'-soya, rang-tus, kolorit va uning qonun-qoidalari hamda naturadan rangtasvir ishlash metodikasi haqidagi bilimlar rangtasvir texnikasi va barcha usullarining nazariy asosini tashkil etadi.

Rangtasvir insonning murakkab aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlani, uzlusiz falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalashga qodir. Hodisa, voqeа va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'nalishdagi janrlar orqali ochib beriladi.

Rangtasvir tarixi ibridoiy odamning g'or devoriga chizgan rasmlaridan boshlanadi. Yuksalish davrida ulkan mafkuraviy durdonalar to'plangan. O'zbekiston hududida qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos boy na'munalarga ega. Bular kulolchilik san'ati va binolar devorlariga ishlangan rangli suratlarda ko'rindi. Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha va Panjikentdagи bino devorlariga ishlangan rangli tasvirlar ma'nodorligi bilan kishini hayratga soladi.⁶



Zaravutsoy. "Bug'u va ovchilar"⁷



Sarmishsoy. "Ovchilar"⁸

Zarafshon etagidagi "Sarmishsoy" qoyalariga chizilgan yovvoyi hayvonlar tasvirlari bunga misol bo'la oladi. O'tmishda ajdodlarimiz turli dinlarga sig'inishgan. Tasvirlar ijod qilib, o'z e'tiqodlarini ilohiyashtirish maqsadida bebaho san'at namunalarini yaratishgan. Bu tasvirlar tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab izlanishlar natijasida noyob, nodir san'at asarlariga aylangan.

Devoriy suratlar jahon mahobatli amaliy bezak san'atining nodir durdonalari bo'lib

⁶ Qo'ziyev T, Egamov A, Qanoatov T, Nurqobilov A. Rangtasvir. -T.: "San'at" jurnali nashryoti, 2003, -5 b.

⁷ O'sha manbaa.

⁸ O'sha manbaa


hisoblanadi. Bu tasvirlar o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi va real hayot badiiy obrazlarda ifoda ettirilganligi bilan kishilarni hanuz lol qoldirib kelmoqda. Bu asarlar g'oyasi-xalqlar o'rtasida do'stlik, totuvlik va shuningdek ichki va tashqi go'zalliklarni tarannum etadi. Devordagi rasmlar ramziy mahobatli amaliy bezak san'ati usulida bajarilgan bo'lib, tarix va ilohiyot sirlarini ochib beruvchi bebaho manbalar hisoblanadi.



Samarqand, Afrosiyob. Devoriy rangli tasvir. (VI-VII-asr).


Uyg'onish davrida inson barcha narsalar uchun taqqoslash mezoni va rangtasvir asarlari qahramoniga aylandi. Madonna tasviri yer yuzida g'oyaviy kamolotning yuksak ko'rinishi bo'ldi. Musavvirlar realistik asarlar yarata boshladilar.

Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Mahmud Muzahhib, Qosim Ali va boshqalar rangtasvirning miniatyura usulida samarali ijod qilganlar.

**Leonardo Da Vinchi "Monaliza".****Boburnoma "Qobildagi bog'i kalon".**

O'zbek xalqining mohir musavvirlari Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiiev, Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Sobir Rahmetov, Bahodir Jalolov kabilar buyuk allomalar va portret janrida zamondoshlarimiz siymolarini yaratganlar va yaratib kelmoqdalar.

Musavvirlar go'yo hayot lazzatlari madhiyasini kuylaydilar. O'zbek musavvirlari Yu.Yelizarov, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonov, G'afur Abdurahmonov va boshqalar ijodlarida natyurmort janriga keng o'rinn berilgan.

**K.Behzod "Husayn Boyqaro"****Ch.Axmarov "Raqqosa"**

Bundan tashqari, rassomlar haqidagi risolaning mualliflari Qozi Ahmad "Behzod shu darajada mohir musavvir bo'lib yetishdiki, rangtasvir paydo bo'lganidan buyon bu sohada san'at ahli orasida unga teng keladigani yo'q edi" - deb èzadi. Chunki, Behzod asarlari nafaqat o'ziga xos chizgi va kompazitsiyasi bilan, balki ranglarni qo'llanishi jihatidan ham sharq san'atida muhim o'rinn tutadi.

Rangtasvir bo'lajak pedagoglar, rassomlar, dizaynerlar, arxitektorlar uchun juda muhimdir. Keljakdagi faoliyatları va ijodida rangtasvirni yaxshi o'zlashtirmay turib boshlolmaydilar. Rangtasvir tarixi va bugungi kundagi rivojlanishini o'rganishi ijodkorni kasbiy mahoratini rivojlantiradi, rassomlarning ijodini kuzatish orqali esa ularning yo'nalishi, uslublarini, mahorati ijodkor uchun mакtab vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir." -T.: "Tasvir"-2021-y, -36 b.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagи PQ-3219-sон "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // Xalq so'zi. - 2017 y., 17- avgust.

3.Abdirasilov S, Tolipov N, Oripova N. Rangtasvir.(O'quv qo'llanma)-T.: "O'zbekiston" -2006 y,-135 b.

4.Sultonov X.E. Rangtasvir.-T.: O'quv qo'llanma.-2019 y, 162 b.

5.Qo'ziyev T, Egamov A, Qanoatov T, Nurqobilov A. Rangtasvir.-T.: "San'at" jurnali nashryoti.-2003 y, 128 b.

6.Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>

7.Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>

8.Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>

9.Arifjanov, A., Rakhimov, K., Abduraimova, D., Babaev, A., & Melikuziyev, S. (2020, June). Hydrotransport of river sediments in hydroelelators. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 869, No. 7, p. 072003). IOP Publishing. DOI 10.1088/1757-899X/869/7/072003

10.Raximov, K., Babaev, A. R., & Abduraimova, D. (2019). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DETERMINING KINEMATIC PARAMETERS OF A JET UNIT. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(4), 20-23.

11.Исломова, Г. Т. (2016). СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ (МАТЕРИАЛЫ ИССЛЕДОВАНИЯ). Вестник современной науки, (1-2), 89-92.

12.Исламова, Г., & Голубева, Л. (2020). Духовно-нравственное воспитание учащихся как компонент здоровье сберегающей деятельности преподавателей профессиональных колледжей и лицеев. Научный электронный журнал "Профессиональное образование Арктических регионов", 1(4), 37-39. извлечено от <http://www.arctic-prof.ru/index.php/prof/article/view/131>

13.Khamdamovna, I. Z., Kamola, R., & Nigora, J. (2022). Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 413-416. Retrieved from <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/107>

14.Иноярова, З. Х. (2021). ИНТЕГРИРОВАННЫЙ УРОК «ВОСПИТАНИЕ» СОВМЕСТНО С ЛИТЕРАТУРНОМУ ЧТЕНИЮ И ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В 3 КЛАССЕ. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ (pp. 232-236).

15.Akhmedova, M., Inoyatova, Z., Ergasheva, G., Aripova, G., & Kayumova, S. (2020). Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 3872-3885.

16.Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

17.Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

18. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
19. Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkorি buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'naliш. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
20. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>
21. Жаббаров, Р. Р. (2022). РАНГТАСВИР АСАРЛАРИНИ ЎРГАНИШДА ҚАЛАМТАСВИР НАЗАРИЯСИ ВА ҚОНУНИЯТЛАРИ. ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 163-167.
22. Maxkamova, S., & Jabbarov, R. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 27–29. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5097>
23. Kholmuratovich, M. K., Mardanqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05).
24. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING" LANDSCAPE PAINTING. Journal of Critical Reviews, 7(6), 2020.